

OLIGOFRENOPELAGOGIKA FANINING MAQSADI , VAZIFASI VA TURLARI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR.

Otajonova Pokizabegim Sanjarbek qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Maxsus pedagogika yo'nalishi 4 kurs talabasi

Annotatsiya: Siz bu maqola orqali oligofrenopedagogika fani nima haqidaligi va qanday bolalarni o'qitishini , maqsad va vazifalari nimalardan iborat ekanligini bilib olasiz. Aqli zaiflikning darajalari , Ruhiy rivojlanishi sust bolalar , autizm va daun sindromlari haqida ma'lumotlar olasiz . Ular qanday nuqsonlar va qanday korreksiya qilinishini bilasiz. Bu maqola sizdagi bilimlarni yanada mustahkamlaydi va bilmaganlaringizni o'rgatadi.

Kalit so'zlar: Oligofrenopedagogika, aqli zaiflik , autizm sindromi , daun sindromi , yordamchi maktab , RRS bolalar.

KIRISH

Oligofreniya yunoncha “oligos” – kam, oz, “freno” -aql so'zlaridan olingan bo'lib, esi past , aqli past demakdir. Oligofren bolalar markaziy nerv sistemasining organik kasalliklari natijasida bilish faoliyati pasayib ketishi va bu nuqsonlar umrbod saqlanib qolish bilan boshqa alohida yordamga muhtoj bolalardan farq qiladilar.

Oligofrenopedagogika – bu maxsus pedagogikaning tarkibiy bo'limi bo'lib, intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanishi, ta'limi va tarbiyasi haqidagi pedagogik fan.

Oligofrenopedagogika fani o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'ygan:

1. Yordamchi maktabda maxsus ta'lim-tarbiya berishning mazmun mohiyatini anglatish.

2. Aqli zaif o'quvchi shaxsini rivojlanishining asosiy omillari, yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish kabi masalalar , ta'limning ma'lumot beruvchi va korreksion rivojlantiruvchi masalalariga ko'proq e'tibor qaratish.

3.Yordamchi maktabda o'quvchilar tarbiyasiga oid tarbiya nazariyasi va metodikasi bo'limida aqli zaif o'quvchilarni tarbiyalashning ilmiy asoslari, tarbiyaning o'ziga xos mohiyati va uslublari kabilarni o'z ichiga oladi.

Aqli zaiflik.

Oligofrenopedagogika fanining dastlabki, boshlang'ich davri aqli zaiflikning mohiyatini aniqlash bilan xarakterlanadi. Birinchi marta psixiatr F. Platter (1537-1614) ruhiy kasalliklar orasidan aqli zaif bolalarni ajratib berdi. Aqli zaif bolalarni tasniflash,



ularga klinik tavsifnoma berish ishlari F.Pinel (1775- 1838), J. Eskirol (1772-1840) tomonidan bajarildi. J.Eskirol birinchi marta «aqli zaiflik» atamasini fanga kiritadi.

Pedagogikaning umumpedagogik va didaktik tamoyillarini qo'llash aqli zaif bolalar ta'lim-tarbiyasida o'ziga xos xususiyatlar kasb etadi. Tuzatish (korreksiya) deganda aqli zaif bolalarning jismoniy va ruhiy nuqsonlarini to'g'irlash, yumshatish, hayotga moslashtirish tushuniladi. Tuzatish ishlari nuqsonli bolaning rivojlanish imkoniyatlariga asoslanaladi. Aqli zaif bola deganda bosh miyasining organik buzilishi natijasida bilish faoliyatlarining turg'un pasayishini tushunamiz.

Aqli zaiflar 4 ta daraja bilan shifrlanadi:

- 1) F70- yengil daraja
- 2) F71- o'rta daraja
- 3) F72- og'ir daraja
- 4) F73- chuqur og'ir daraja

Daun sindromi.

Aqli zaiflikning og'ir shaklidagi bolalar orasida Daun sindromli deb tashxis qo'yilgan bolalar soni jihatidan sezilarli darajada kop. Bu kasallik xromosomalar patologiyasi bilan bog'liq, bunda odam hujayrasida odatdagidek 46 ta xromosoma o'rniga 47 ta xromosoma hosil bo'ladi. Bularning yarmi yurak kasalliklari bilan dunyoga keladi. Maxsus muassasalardagi tarbiyalanuvchilar umumiy sonining 30 va undan ortiq foizini shu kabi bolalar tashkil qiladi. Daun sindromi bilan kasallangan bolalarning tashqi ko'rinishi quyidagicha o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi: qisq ko'zlar, kichik "tugmacha" burun, yanoqlari qizg'ish, og'zi yarim ochiq, tili semiz bolib, teri burmalari va chuqur egatlarga ega, tishlari yemirilgan va oralari ochiq, bosh suyagi meyoridagidan kichik, peshonasi kesik, qo'l panjasi barmoqlari juda kalta.

Daun sindromli bolalarda motorika ko'proq darajada buzilgan ular uchun harakatlarning, yurishining beoxshovligi, bo'g'implarning yuqori egiluvchanligi xosdir. Asosiy statik funksiyalari rivojlanishida kechikish aniqlangan (boshni tutib turish o'tirish, tik turish, koordinatsiya), shuningdek harakat qanchalik qiyinlashsa uni egallash va bajarish muddatlari ortga suriladi. Bu bolalarda muvozanat ko'nikmalari nuqsonlari yaqqol ifodalangan. Daun sindromli bolalar boshqa aqli zaif bolalar kabi predmet shaklini ko'rish orqali farqlay olishadi, biroq obyektни tanish natijalari bu bolalarda yomonroq bo'ladi. Bu holat Daun sindromli bolalarda barmoqlar harakatlarining rivojlanmaganligi bilan izohlanadi.

Ruhiy rivojlanishi sust bolalar.

Ulgurmovchi o'quvchilar orasida ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar ham uchrab turadi. Ularning bilish faoliyati- intellekti mantiqiy tafakkuri, idroki, xotirasi, ixtiyoriy diqqati, ish qobiliyati va boshqa xislatlariga birinchi o'rinda markaziy nerv sistemasining



kasalliklari natijasida ruhiy rivojlanishi sustlashadi. Bunday bolalarda hissiyot, iroda sferasidagi kamchiliklar birlamchi, aqliy rivojlanishni orqada qolishi esa ikkilamchi hodisa bo'lib hisoblanadi.

T.A.Vlasova, M.S.Pevzner, V.I.Lubovskiy, T.V.Egorova, K.S.Lebedinskaya, N.A.Nikashina, K.K.Mamedov, G.B.Shouma-Rov, N.A.Sipina, R.D.Triger boshqa olimlarning ma'lumotlariga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarining 5, 8 foizini ana shunday bolalar tashkil etadi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida mamlakatimiz defektologlari ishlarida ham bu masalaning turli tomonlari e'tiborga olinadi. Bunday orqada qolishning asosiy sabablariga bosh miyaning minimal, yuzaki, yengil zararlanishi tug'ilish vaqtidagi, homila davrida yoki go'dakning ilk yoshidagi zararlanishlari kiradi. Rivojlanishning orqada qolishi, susayishi deganda, ruhiy rivojlanishning bola yoshiga to'g'ri kelmasligi tushuniladi.

Olimlardan K.S.Lebedinskaya, G.P.Berto'n, E.M.Dunayeva va boshqalar ruhan sust rivojlanganlikni klinik-psixologik jihatdan quyidagi xillarga bo'lishni tavsiya etadilar:

1) Konstitutsional; 2) somatogen; 3) psixogen; 4) serebral shakli.

Autizm sindromi.

Autizm – grekcha “autos”, ya'ni “o'zi” degan ma'noni anglatib, reallikdan uzoqlashish, tashqi dunyodan ajralish va tashqi olam bilan kommunikativ funksiyaning buzilishi kabilarni o'z ichiga oluvchi sindrom hisoblanadi. Mamlakatimizda bunday bolalar sonining ortib borishi tibbiyot xodimlari, psixiatrlar, psixologlar, pedagoglar va ota-onalarning bu muammoga chuqur yondashuvlarini va uning kelib chiqish sabablarini aniqlash, shuningdek, ularni korreksiyalashning eng optimal variantlarini ishlab chiqarishga undamoqda.

Autizmning asosiy belgilari 1 yoshdan to 3 yoshgacha davrda to'liq namoyon bo'ladi. Ota-onalar quyidagi belgilarga e'tiborli bo'lishlari kerak:

- Bolaning ota-onasi bilan bo'lishini yoqtirmaslik (qo'lga olishi, quchoqlashishi, o'pishi, silashi va h.k.)
- uch yashar bola nutqining rivojlanmaganligi;
- biron bir kishi bilan bo'lishdan ko'ra bir o'zi bo'lishini yoqtirishi; ular buyumlarni doim bir xil tartibda qo'yib chiqadilar
- tevarak-atrof bilan aloqada bo'lishni istamasligi; qiziqmaslik. Odatda bola nutqi hali rivojlanmagan bo'lsa ham, u o'z istak-xohishlarini imo-ishora, harakat bilan bildiradi. Bola autizmida esa bu kuzatilmaydi;
- bola ko'zingizga qaramaydi;
- bolaning harakatlari, imo-ishoralari hech narsani bildirmaydi, asabiylashganini ko'rsatadi; Bola bir tonda, ifodasiz, xuddi bir yod olgan matnni ifodalayotganidek gapiradi.



Bola o'zi yaxshi gapira olmasa ham, uning aks-sado nutqi, ya'ni exolaliya - kimnidir ketidan qaytarish qobiliyati yaxshi bo'ladi;

- Odatdan tashqari idrok etish reaksiyalari (ovozga, hid, ta'm.

Ushlab ko'rishlarga), masalan ovozdan qattiq qo'rqib tushishi, ma'lum hiddan tushkunlikka tushishi va h.k.

Hozirgi kunda olimlar autizm sindromiga chalingan shaxslarni asosan 4 ta guruhga bo'lib o'rganishmoqda. Bular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1-guruh: Ilk yoshdagi bolalar autizmi (2yoshgacha bolgan bolalar)Ba'zi bolalar atrofdagi voqealarga butunlay bee'tibor bo'ladilar.Bolani kuldirish, e'tiborini qaratish juda qiyin. Ular hattoki qorni ochganida ham munosabat bildirmaydi. Taktil muloqotga kirishishni istamaydi.

2-guruh: Bolalar autizmi (2-11yoshdagi bolalar),.

Bolalar autizmida ham ilk yoshdagi bolalar autizmida uchraydigan belgilar kuzatiladi. Ular bir so'z yoki musiqani doimiy ravishda takrorlab yurishadi, ko'nikma va malakalarni egallashga juda qiynalishadi.

3-guruh: O'smirlar autizmi (11-18 yoshdagi bolalar).

Bu yoshdagi bolalar eng oddiy muloqot ko'nikmalariga ega bo' lishadi. Lekin ko'proq yolg'iz qolishni xohlashadi. Ko'p hollarda ular ruhiy tushkunlik holatida bo'ladilar

4-guruh: Kattalar autizmi.(18 yoshdan katta bo'lganlar).

Kattalar autizmida shaxsda ruhiyatning jiddiy buzilishi kuzatiladi. U butunlay o'z olamida yuradi, tashqi olamdagi voqea va hodisalarga be'etibor bo'lishadi.

Aqli zaif bolalarga ta'lim-tarbiya berish jamiyatning eng muhim vazifalaridan biridir, chunki ularning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va ularni jamiyatga integratsiya qilish orqali ularning hayot sifatini yaxshilash mumkin. Individual yondashuv, psixodiagnostika, ijtimoiy integratsiya, psixologik-pedagogik yordam, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va ota-onalarni qo'llab- quvvatlash kabi metodlar orqali bu bolalarning kognitiv, hissiy, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishini samarali rag'batlantirish mumkin.

Biroq, bu metodlarni amalga oshirish uchun mutaxassislar, resurslar va moliyaviy imkoniyatlar yetishmasligi kabi muammolar mavjud. Inklyuziv ta'lim, maxsus maktablar va xalqaro tajribalardan foydalanish orqali bu muammolarni bartaraf qilish va aqli zaif bolalarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash mumkin.

Jamiyat, davlat va nodavlat tashkilotlarining hamkorligi, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali xabardorlikni oshirish orqali har bir bola o'z salohiyatini to'liq namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Aqli zaif bolalarga to'g'ri yondashuv va qo'llab-quvvatlash ularning hayotini yanada yaxshilash va ularni jamiyatning to'laqonli a'zolariga aylantirishga yordam beradi.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Po'latova . P.M va b. Maxsus pedagogika – Toshkent .” Fan va texnologiya “, 2014
2. Xamidova .M.U. Maxsus pedagogika – Toshkent. “ Fan va texnologiya “, 2022
3. Po'latova .P.M . Maxsus pedagogika (oligofrenopedagogika)- Toshkent. “ G'ofur G'ulom” ,
4. <https://inlibrary.uz/index.php/iqro/article/view/77032>

